



TECH SCIENCE

ISSN 3030-3702

**TEXNIKA FANLARINING
DOLZARB MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL
SCIENCES**



№ 5 (4) 2026

TECHSCIENCE.UZ

№ 5 (4)-2026

**TEXNIKA FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES
OF TECHNICAL SCIENCES**

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

KARIMOV ULUG'BEK ORIFOVICH

TAHRIR HAY'ATI:

Usmankulov Alisher Kadirkulovich - Texnika fanlari doktori, professor, Jizzax politexnika universiteti

Fayziyev Xomitxon – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Rashidov Yusuf Karimovich – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Adizov Bobirjon Zamirovich– Texnika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti;

Abdunazarov Jamshid Nurmuxamatovich - Texnika fanlari doktori, dotsent, Jizzax politexnika universiteti;

Umarov Shavkat Isomiddinovich – Texnika fanlari doktori, professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti;

Bozorov G'ayrat Rashidovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti;

Maxmudov Muxtor Jamolovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti;

Asatov Nurmuxammat Abdunazarovich – Texnika fanlari nomzodi, professor, Jizzax politexnika universiteti;

Mamayev G'ulom Ibroximovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Jizzax politexnika universiteti;

Ochilov Abduraxim Abdurasulovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370-son qarori bilan texnika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika insituti.

TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA**FANLARINING DOLZARB**

MASALALARI elektron jurnali

15.09.2023-yilda 130343-sonli

guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.

Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

<i>Беккулов Джахонгир, Тураев Хуршид</i> ПРОГНОЗИРУЮЩЕЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССОМ СУШКИ ТВЁРДЫХ СЫПУЧИХ МАТЕРИАЛОВ	5-15
<i>Бахромов Хасан, Бозорбоев Жавлонбек, Жумаев Фиёсжон</i> АЛГОРИТМЫ ПОСТРОЕНИЯ ФИЛЬТРА ВИНЕРА-ХОПФА И ФИЛЬТРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ ИЗОБРАЖЕНИЙ НА ЕГО ОСНОВЕ	16-20
<i>Hamdamova Dilshoda</i> BADIIY ADABIYOTLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH TIZIMI Й	21-23
<i>Babadjanov Elmurod, Maxambetjaliev Musabek</i> RFID YORDAMIDA AVTOTURARGOH KIRISH-CHIQUISHINI NAZORAT QILISH VA BANDLIKNI QISQA MUDDATTA VAHOLASH	24-29
<i>Айтмуратов Бакберген, Оразымбетов Темурубек</i> МОНИТОРИНГ СОСТОЯНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ УГОДИЙ НУКУССКОГО РАЙОНА НА ОСНОВЕ МНОГОСПЕКТРАЛЬНЫХ ВЕГЕТАЦИОННЫХ ИНДЕКСОВ И МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ	30-36
<i>Qutlimuratov Yusup, Orazbayev Shaxmardan</i> YERLARNING SHO'RLANISH DARAJASINI ANIQLASH VA PROGNOZ QILISHDA NEYRON TARMOQLARDAN FOYDALANISH	37-42
<i>Aimbetova Gulara, Sarsenbaeva Hu'rlixa, Djumabaev Alpamis</i> KAM RESURSLI TILLARNI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'TY INTELLEKT MODELLARINING SAMARADORLIGI VA MAVJUD MUAMMOLAR	43-48
<i>Abdullayev Elmurod, Bektemirov Hojimurod</i> TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH ALGORITMLARINING BARQARORLIGINI NAZARIY TAHLIL QILISH	49-54
<i>Mamatov Narzillo, Samijonov Abdurashid, Abdullaeva Barno,</i> <i>Usarov Jurabek, Samijonov Boymirzo</i> QULOQ CHANOG'IGA ASOSLANGAN SHAXSNI IDENTIFIKATSIYALASH USULI	55-67
<i>Xaqberdiyev Asliddin</i> TOMCHILATIB SUG'ORISHDA NAVIER - STOKES TENGLAMALARIDAN FOYDALANIB, SUV SARFINI OPTIMALLASHTIRISH	68-74
<i>Xamzayev Dilshod</i> PAXTANI QURITISH QURILMASI: KONSTRUKSIYA, ISH PRINSIPLARI VA ISSIQLIK-TEXNIK XUSUSIYATLARNING KENGAYTIRILGAN TADQIQI	75-80
<i>Odilova Mohigul</i> METROLOGIYA SOHASIDA XALQARO UYG'UNLASHUV: O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL INTERNATIONAL HARMONIZATION IN THE FIELD OF METROLOGY: A CASE STUDY OF UZBEKISTAN	81-87

<i>Doniyev Erkin, Yusupov Rustam, Eshqurbonov Anvar</i> BAZALT TOLALI KOMPOZIT QOPLAMALARNI YAQIN INFRAQIZIL NURLANISH YORDAMIDA QURITISH: TEXNOLOGIYA, STRUKTURA VA XOSSALAR	88-94
<i>Sayitov Shavkatjon, Xolmatov Erkinjon</i> PAHTA QURITISH JARAYONINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	95-103
<i>Эргашева Камола</i> ОПТИМИЗАЦИЯ ПАРАМЕТРОВ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ИЗМЕРИТЕЛЬНОГО УСТРОЙСТВА ДЛЯ КОНТРОЛЯ РЕОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ЖИДКИХ СРЕД	104-110
<i>Ismoilov Muxriddin, Rahimov Anvarjon, Isomiddinova Soliha, Xolmamatova Shaxzoda</i> ASINXRON DVIGATELLAR BOSHQARUV TIZIMLARIDA TIZIMLI XATOLIKLARNI DIAGNOSTIKA QILISH VA ULARNI KOMPENSATSIYA QILISH ORQALI DASTGOHLAR ANIQLIGINI OSHIRISH	111-120
<i>To'rayev Azizbek, Karimov Abror</i> YAQIN INFRAQIZIL NURLANISHGA ASOSLANGAN O'LCHASH ASBOBLARINI TADQIQ QILISH VA ULARNING METROLOGIK XARAKTERISTIKALARINI O'RGANISH	121-126
<i>Рустамзаде Джошгун</i> ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ЖАРКОГО КЛИМАТА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ СГОРАНИЯ В ГАЗОВЫХ ТУРБИНАХ И РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ	127-136
<i>Mammadov Fuad, Kalbaliyev Faig</i> PERFORMANCE ASSESSMENT OF SUPERCRITICAL CO2 BRAYTON CYCLES IN SOLAR POWER TOWER SYSTEMS	137-145
<i>Xasanov Azimjon</i> MAHALLIY XOM ASHYOLAR VA CHIQINDILAR ASOSIDA YENGIL BETON	146-151
<i>Abdumannopov Ozodbek, Askarov Xasanjon</i> O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQRISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	152-156
<i>Xujanov Chariyar</i> QUTQARUV-QIDIRUV ISHLARINING VAZIFALARI VA TASHKILY TUZILMASI	157-162

BADIIY ADABIYOTLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH TIZIMI

Hamdamova Dilshoda Rustamjon qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,
"Kutubxonaxborot faoliyati" kafedrasida
2 bosqich tayanch doktoranti

Ilmiy rahbar: Yuldashev Ibrohim Jurayevich

Filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy adabiyot vositasida o'quvchilarning axloqiy madaniyatini yuksaltirish tizimi haqida fikrlar bayon qilingan. Ular orqali badiiy adabiyotni mutolaa qildirish jarayonini yanada rivojlantirish, kutubxonachining o'quvchilar bilan ishlash faoliyati davomida olib boriladigan ijtimoiy-madaniy faoliyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, tarbiya, badiiy adabiyot, fond, yakka, guruhli, ommaviy ishlar, mutolaa, madaniyat, maktab kutubxonasi, maktab kutubxonachisi.

SYSTEM OF IMPROVING THE MORAL CULTURE OF STUDENTS THROUGH FICTION

Hamdamova Dilshoda Rustamjon qizi

Uzbek State Institute of Arts and Culture,
Department of "Library and Information Activities"
2nd stage basic doctoral student

Scientific supervisor: Yuldashev Ibrohim Jurayevich

Doctor of Philology, Professor

Annotation. This article presents ideas about the system of improving the moral culture of students through fiction. Through them, the further development of the process of reading fiction, the socio-cultural activities of the librarian during the work with students are indicated.

Keywords: student, education, fiction, fund, individual, group, public work, reading, culture, school library, school librarian.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ts-v4i5y2026N03>

Badiiy adabiyotlar vositasida o'quvchilarning axloqiy madaniyatini yuksaltirish tizimi fondni shakllantirish, yakka tartibda ishlash, guruhli tarzda xizmat ko'rsatish, ommaviy tadbirlar, yangi kitoblar sharhi, mutolaa madaniyatini shakllantirish, yozuvchilar, shoirlar, atoqli kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazish singarilarni o'z doirasiga qamrab oladi.

Maktab kutubxonasi fondini to'ldirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, uni boyitish, yangi adabiyotlarni o'quvchilarga taqdim etish muammolari bilan bog'liqdir.

Xalqaro IFLA tashkiloti tomonidan maktab kutubxonalari bo'yicha yo'riqnomada aniqlik kiritilishicha, maktab kutubxonasi o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun axborot resurslari to'plamidan tashqari, bo'sh vaqt uchun materiallar, jumladan, mashhur badiiy adabiyotlar, komikslar, musiqa, kompyuter o'yinlari, filmlar, jurnallar, plakatlar va boshqalarni saqlashi kerak. [1] Ushbu manbalar o'quvchilar, fan o'qituvchilari, ota-onalar bilan maslahatlashgan holda tanlanishi va ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini aks yettirishi kerak.

IFLA va YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlagan "Maktab kutubxonalari bo'yicha ko'rsatmalar" nomli qo'llanmada maktab kutubxonalari fondida mavjud adabiyotlarning o'quvchilar soniga nisbatan qay tarzda taqsimlanishi haqida takliflarni bildiradi va unga ko'ra kitob fondining yetarli darajasiga ko'ra har bir o'quvchiga 10 ta kitob to'g'ri kelishi va fondning kamida 60 foizi badiiy adabiyotlardan bo'lishi kerak deb hisoblanadi. [2; C. 6]

Kutubxonachining vazifasi bolalarni yoshligidan kutubxona bilan tanishtirish, mutolaa qilish va maktab o'quvchilariga bosma va yelektron tarmoqda kitob bilan ishlashni o'rgatishdir. Bu universal kutubxona resurslari va kutubxona usullaridan foydalangan holda kutubxona sharoitida o'zining ta'limiy va tarbiyaviy funksiyasini bajaradi.

Yakka tartibda kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning zamonaviy falsafiy va pedagogik – psixologik asoslari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tomonidan 2003 yilda yangi tahrirda qabul qilingan "MDHga a'zo davlatlar uchun na'munaviy kutubxona Kodeksi" nomli hujjatda o'z aksini topgan.

Rossiyalik olim N. Kuznetsova ta'kidlaganidek: Har qanday bola – bu alohida bir dunyo va faqat biz uni yagona va betakror shaxs sifatida ko'ra olganimizdagina bilishimiz mumkin. Bir xil bola yo'q, shu sababli har bir kitobxon bilan uning jismoniy, ruhiy va yoshi xususiyatlarini hisobga olgan holda yakka tartibda ishlash lozim. Yosh kitobxonlar bilan yakka ishlashdan bosh maqsad – har biriga uning qiziqishiga, yakka-ruhiy o'ziga xosligiga mos keladigan "o'z" kitobini topib berish zarur. Eng kichik kitobxon bizning yordamimiz bilan kutubxonaga kelishni xoxlasin. Yakka yondashishning o'zi ijodiy xususiyatga egaligi tufayli ham yakka ishlashning tayyor retsepti yo'q. Bunday ish bolani tushunish, unga hurmat va muhabbatga asoslanadi. Kutubxonachi nafaqat kitobning bilimdoni bo'lishi, balki nozik ruhshunos, mohir pedagog va aqlli tarbiyachi ham bo'lishi lozim. [3; B.]

Kitobxonlik "murakkab ijtimoiy-ruhiy jarayon bo'lib, uning mohiyatini anglash tizimiy tahlil va sintezni uyg'un tarzda amalga oshirish hamda mutolaa hodisasining tarkibiy tushunchalarini o'rganishni taqozo etadi. [4; B. 15]

Aksariyat maktab kutubxonachilari o'z vazifasini o'quvchiga kerakli ma'lumotni topib berish yoki kerakli ma'lumotni topishida yordamlashishdan iborat deb tushunadilar. Lekin ular shuni unutmasliklari zarurki, o'quvchilar o'zlari topgan axborotlarni o'rganish va baholash uchun yetarli ma'lumotga ega emasliklari tufayli axborotni tartiblashtirishda kutubxonachining yordamiga muhtoj bo'ladilar. Bunday sharoitda kutubxonachi foydalanuvchining savolini aniqlashtirishda ham ishtirok etishi lozim bo'lib, bu axborot madaniyatini shakllantirishning bir turi bo'lib hisoblanadi. [5; B. 150]

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish har doim maktab kutubxonalari faoliyatida birinchi o'rinda turgan, biroq bugungi kunga kelib o'quvchilarning kitobdan yiroqlashuvi natijasida maktab kutubxonalari oldida har qachongidan ham ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etish, kitobxonlik madaniyatini qayta tiklash va rivojlantirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Jamiyatdagi hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyatning

murakkabligiga qaramay, o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash uchun asos bo'lgan ta'lim mazmuniga xos bo'lgan gumanistik qadriyatlar maktab kutubxonalari faoliyatida ham saqlanib qolmoqda.

O'quvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ularning mutola madaniyati va axborot madaniyati darajasini oshirishga yordam berish, o'quvchi va maktab kutubxonachisining hamkorligi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning o'quv, dam olish va boshqa faoliyatida o'z-o'zini anglashi, o'zini namoyon qila olishida yordamlashish singari yo'nalishlar yakka tartibda xizmat ko'rsatishning asosiy vazifalari hisoblanadi.

O'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbat maktab kutubxonachisi faoliyatining quyidagi darajalariga mos kelishi zarur:

1) O'quvchilarni maktab kutubxonasiga jalb qilish – o'quvchining kutubxonadan o'ziga kerakli bo'lgan kitobni qidirib topa olishi tizimini o'zlashtirishga yordam berish, o'quvchi va mutolaani o'rganish;

2) Kitob mutolaasi jarayoniga ta'sir ko'rsatish – o'quvchilarga adabiyot

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Committee, I.S.L.S.S. IFLA school library guidelines [Электронный ресурс] / I.S.L.S.S. Committee // Den Haag, Netherlands: International Federation of Library Associations and Institutions. – 2015. – 69 p.
2. Руководство ИФЛА/ ЮНЕСКО для школьных библиотек [Электронный ресурс] / I.S.L. and R. C. Section, T. Pemmer Sætre, G. Willars. – International Federation of Library Associations and Institutions (IFLA), 2006.– 16 с.
3. Кузнецова Н. Каждый ребёнок – это загадка// Библиотека. - 2010. - № 11. - С. 56-59.
4. Умаров А. О. Мутолаа маданияти: шахс, жамият, тараққиёт. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. – Тошкент: Фан, 2004. – 194 б.
5. Yuldashev I., Nosirov O'. Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2020.– 360 b.
6. Казаринова И. Н. Влияние групповой работы общедоступных библиотек на саморегуляцию читательской деятельности личности: Автореф. дисс. ... кандидата педагог. наук.– Санкт–Петербург, 1997.– 17 с.

TECHSCIENCE.UZ

**TEXNIKA FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

№ 5 (4)-2026

TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL SCIENCES

**TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**
elektron jurnali 15.09.2023-yilda 130346-
sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika insituti.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.

Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com